

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Xodjayeva
30-iyun 2025-yil

**JAHON GEOGRAFIYASI
FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	500 000 - Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta’lim sohasi:	530 000 - Fizika va tabiiy fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60530200 - Geografiya

Qo‘qon– 2025

Fan/modul kodi JGeog1345620		O‘quv yili 2025-2026	Semestr 3,4	Kreditlar 4/4	
Fan/modul turi Majburiy		Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4/4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)		Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Jahon geografiyasi	60/60		60/60	120/120
2.	I. FANNING MAZMUNI Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarga materik va okeanlarning vujudga kelishi, rivojlanishi, tuzilishi, tarkibiy qismlari, relyefi, iqlimi, suvlari, tuproqlari, o‘simliklari va hayvonot dunyosi, landshaftlar, tabiiy komplekslar hosil bo‘lishida ro‘y beradigan hodisalar, jahon mamlakatlari va mintaqalarining iqtisodiy-geografik o‘rni, aholisi, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish xususiyatlariga oid bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat. Fanning vazifasi – talabalarga umumiy tabiiy geografik qonuniyatlar, sabab va oqibat bog‘lanishi orqali materiklar va okeanlardagi voqea va hodisalarni kelib chiqishi xususiyatlari, rivojlanish tarixi va inson ta’sirida o‘zgarishlari, jahon mamlakatlarining sotsial-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko‘ra tiplari, jahon aholisi va uning joylashuv xususiyatlari, jahonning alohida mamlakatlari iqtisodiy geografik tavsifi haqida nazariy va amaliy bilimlar berish Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" va "Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" fan dasturlari dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalaridan biri bo‘lgan Moskva davlat universiteti (Rossiya)ning “Физическая география материков и океанов” hamda “Социально-экономическая география зарубежных стран” fanlari asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings 2024 reytingida 94-o‘rinni egallagan bo‘lib, geografiya yo‘nalishi bo‘yicha boy ilmiy-uslubiy tajribaga ega. Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan: Nazariy va amaliy yondashuv uyg‘unligi – Moskva davlat universitetining mos kurslari asosida ishlab chiqilgan mazkur fanlarda nazariy bilimlar bilan birga, geografik obyektlar (materiklar, okeanlar, mintaqalar, davlatlar) haqidagi ma’lumotlarni real xaritalar, statistik tahlillar, dala ishlari, GIS platformalari va interaktiv modellar orqali o‘rganish imkoniyati mavjud. Xalqaro standartlarga muvofiqlik – fanlar zamonaviy geografik bilim va ko‘nikmalarni xalqaro mezonlar asosida shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda tabiiy-geografik zonalar, geosiyosiy mintaqalar, ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar va ularning tahlili, barqaror rivojlanish konsepsiyalari kabi global yondashuvlar aks ettirilgan. Tanqidiy fikrlash va tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish – talabalar materiklar va okeanlar tabiati hamda xorijiy mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga oid murakkab jarayonlarni mustaqil tahlil qilish, statistik				

va kartografik ma'lumotlar asosida xulosalar chiqarish, turli makro-mintaqaviy farqlarni tahlil qilish kabi ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

II. ASOSIY QISM (MA'RUZA MASHG'ULOTLARI)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

I-QISM. MATERIKLAR VA OKEANLAR TABIIY GEOGRAFIYASI

I modul. Materiklar

1-mavzu. Yer yuzining landshaft tuzilishi. Zonal va azonal farqlanish omillari. Geografik zonalar, sektorlar.

Tabiat zonalarining tanlash mezonlari. Gipotetik materik geografik zonallik modeli sifatida. Balandlik zonalar va uning modellari.

Gipotetik materikda zamonaviy landshaftlar. Tabiiy muhitning hozirgi holatining xususiyatlari: tabiiy resurslarning qisqarishi, atrof-muhitning ifloslanishi, landshaft degradatsiyasi va ularning dunyoning turli mintaqalarida namoyon bo'lishi.

2-mavzu. Xorijiy Yevropa.

Tabiatining shakllanish bosqichlari. Geostrukturaviy tuzilishi: Yevropaning kembriygacha bo'lgan davr platformasi: Boltiq qalqoni va plitalari, platformalar, epigorsin platformasi, Alp geosinklinal mintaqasi. Neotektonik harakatlar (Boltiq va Shimoliy dengiz yotqiziqlarining shakllanishi, epigorsin platformasi tuzilmalarining umumiy ko'tarilishi, quruqlikda rift yoriqlarining paydo bo'lishi). To'rtlamchi davr muzliklarning relyefining shakllanishiga ta'siri. Yevropa yer yuzasini morfostrukturaviy rayonlashtirish. Platformali oblastlar (O'rta Yevropa)ning tog' va tekisliklari. Epipaleozoy platformalarida burmali-palaxsali tog'lar faollashgan hududlari (Fransiyaning markaziy massivi, Reyn slanets tog'lari, Gars, Shumava, Sudet, Ruda tog'lari, Markaziy Kordilyera va boshqalar). Alp geosinklinal mintaqasining burmalangan o'rta va baland tog'lari (Alp tog'lari, Karpat-Bolqon yoyi, Dinar yassi tog'lari, Pind, Apennin, Pireney, Betian Kordilyerasi); O'rta Gersin massivi tekisliklari (O'rta va Quyi Dunay tekisliklari); qirg'oqbo'yi hududlarning akkumulyativ tekisliklari (Andalusiya, Padan va boshqalar). O'rta okean suv osti tizmasining plato va massivlari (Islandiya).

Asosiy iqlim hosil qiluvchi omillar va ularning Yevropadagi roli. Havo massalarining harakati, ularning yil fasllari bo'yicha taqsimlanishi va mahalliy iqlim xususiyatlari. Iliq okean oqimlarining Yevropa iqlimiga ta'siri: Skandinaviya iqlim anomaliyasi, keng maydonli gumid zonalar. O'rta yer dengizi siklonogenez markazi sifatida, qutbiy havo frontining mavsumiy xususiyatlari. Iqlim mintaqalari va iqlim tiplari. Ichki suvlar: daryo va ko'llari.

Tabiat mintaqalari va zonalar. Yevropada landshaftlarining zonal-belbog'li tuzilishi va turlari. Arktika cho'llari, tundra, subarktik o'tloqlar, tayga, aralash va keng bargli o'rmonlar, o'rmon-dasht, dasht va subtropik doimiy yashil kserofit o'rmonlar va butalar. Balandlik mintalanishi. Turli xil tabiat zonalar landshaftlaridan xo'jalik faoliyatida foydalanishning asosiy yo'nalishlari.

3-mavzu. Xorijiy Osiyo.

Geografik joylashuv xususiyatlari. Geostrukturaviy shakllanish tarixi va asosiy xususiyatlari. Qadimgi platformalar: Arab, Hind va Xitoy platformalari, ularning rivojlanish tarixi. Xitoy platformasining hosil bo'lish sharoiti va parchalanishi: Xitoy-Koreya va Janubiy Xitoy megaqalqonlari, Xitoy platformasining rivojlanishiga katta orogenik mintaqalarning ta'siri. Baykal, paleozoy, mezozoy va kaynozoy davrlarining bukilmali tuzilmalari. Alp-Himoloy seysmik mintaqasi. Neotektonik harakatlar. Markaziy Osiyo ko'tarilmalari. Tinch okeani olovli halqasida seysmik va vulkanik harakatlarning kuchayishi. Xorijiy Osiyoda tektonik harakatlar natijasida foydali qazilmalarning hosil bo'lishi, eng yirik metallogen provinsiyalar, neft, tabiiy gaz va ko'mir konlarining asosiy markazlari.

Xorijiy Osiyo relyefining shakllanishida to'rtlamchi davr muzliklarining ta'siri va o'ziga xosligi. Tog' muzliklari: Janubiy, Markaziy Osiyo. Tibet tog'i muzliklarining o'ziga xos xususiyatlari. Muzloq yerlarning rivojlanishi. Muzloq yerlarda lyossning shakllanishi. Platforma tekisliklari morfostruktura relyef shakllari: denudatsion, akkumulyativ-denudatsion, akkumulyativ, strukturaviy-denudatsion tekisliklar va platolar. Platformali mintaqalaridagi tog' morfostrukturali relyef shakllari. Tog'lar va yassi tog'larning epigeosinklinal mintaqalari: burmali, burmali-palaxsali va qayta yoshargan tog'lar. Qirg'oqbo'yi zonalari tekisliklari.

Iqlim hosil qiluvchi omillar. Havo massalari harakatining fasllar bo'yicha taqsimlanishi; iqlim tiplari. Sibir antitsikloni va uning qishda izotermalarning joylashishiga ta'siri. Osiyoda musson havo massalarining harakati: tropik va tropikyoni mintaqalari. Harorat va yog'inlarning mavsumlar bo'yicha taqsimlanishi. Iqlim mintaqalari. Iqlimiy diagramma tiplari. Oqim hosil qiluvchi omillar va daryolar oqimi. Osiyoning asosiy daryo tizimlari, to'yinish manbalari, daryo turlari va rejimlari. Ichki oqim havzalari, suv tizimi.

Tabiat mitaqalari va zonalar. Mo'tadil, subtropik va tropik mintaqalar ichidagi landshaftlarning farqlari. Mo'tadil, subtropik, tropik, subekvatorial va ekvatorial mintaqalarning zonal landshaft turlarining tuzilishi. Balandlik mintaqalanishining xususiyatlari.

Xorijiy Osiyoni tabiiy-geografik rayonlashtirish. Landshaft xususiyatlari va tabiiy-geografik rayon va o'lkalari zamonaviy landshaftlarining o'ziga xos xususiyatlari.

4-mavzu. Shimoliy Amerika.

Tabiiy geografik xususiyatlari. O'rganilish tarixi. Materikning tarkib topishidagi asosiy bosqichlar. Shimoliy Amerika materigining geografik joylashishi, okean va dengizlar oqimlarining ta'siri, materik atrofidagi orollar va yarim orollar, bo'g'izlar va qo'ltiqlar. Materikning chekka nuqtalari.

Shimoliy Amerika platformasi, Kaledon, Gersin, Kimmeriy, Laramiy va Alp burmalanish bosqichlari va ularning relyefda aks etishi. Foydali qazilmalarning joylanish qonuniyatlari va ulardan foydalanish darajasi. To'rtlamchi davr muzliklarining relyef shakllarining hosil bo'lishidagi ahamiyati.

Materik relyefi. Asosiy relyef shakllari va ularning ta'rifi. Tektonik harakatlar natijasida qosil bo'lgan rel'yef shakllari, materikdagi tog'lar, vulkanik cho'qqilar, yassi tog' va tekisliklar, botiqlar, cho'llar va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Platforma va burmali oblastlarda hamda botiqlarda foydali qazilmalarning joylanish va tarqalish qonuniyatlari.

Materik iqlimi. Iqlimni hosil qiluvchi omillari. Relyefning materik iqlimini hosil bo'lishidagi o'rni va ahamiyati. Yoz va qish oylari iqlimlarining o'ziga xos xususiyatlari. Harorat, yog'in va namlikning taqsimlanishi. Okeanlarning materik iqlimiga ta'siri. Iqlimning fasllar bo'yicha almashinishi. Iqlim mintaqalari va ularning ta'rifi.

Ichki suvlari. Asosiy daryo havzalari. Daryo turlari, yirik daryolar ta'rifi. Ko'llar va ularning kelib chiqishi. Suv boyliklari va ulardan foydalanish.

Materik iqlimiga xos tabiat mintaqalarining joylashishi, o'simlik, hayvonot olami va tuproq qoplamining o'zgarishi, tabiat mintaqalariga umumiy tavsif beriladi, boshqa materiklar tabiat mintaqalari bilan taqqoslash. O'simliklarning kelib chiqish markazlari va hozirgi o'simlik qoplamining hosil bo'lishi. Milliy bog'lar, qo'riqxonalar va alohida qo'riqlanadigan hududlar.

Geografik mintaqalar va zonalar, ularning ta'rifi, materikning sharqiy qismidagi geografik zonalarining meridional almashinishi. Kordilyera tog'laridagi balandlik mintaqalari. Tabiiy geografik rayonlari: Arktika va subarktikaning Amerika sektori, Sharq tabiiy geografik rayoni, G'arb tabiiy geografik rayoni, Markaziy Amerika rayoni, ularning tabiiy geografik tavsifi.

5-mavzu. Afrika materigi

Afrika materigining geografik joylashishi, okean va dengiz oqimlarining ta'siri. Materik atrofidagi orollar va yarim orollar, bo'g'izlar va qo'ltiqlar. Materiklarning chekka nuqtalari. Afrika materigining Gondvanadan ajralib chiqqan davri va shu davrdagi relyef tuzilishi, Materik platformalarining hosil bo'lishi, tektonik harakatlar natijasida hosil bo'lgan relyef shakllari, botiqlar, cho'llar va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Materik tabiiy joylanishining asosiy qirralari (kam parchalanganligi, tropik kengliklarda joylashganligi, ekvatorga nisbatan deyarli simmetrik joylashganligi).

Relyefining shakllanish tarixi va foydali qazilmalari. Afrika platformasining tuzilishi va uning relyefda aks etishi. Shimoliy Afrika cho'llarida asosiy relyef hosil qiluvchi omillar. Buyuk Afrika yoriqlari va ularning relyef hosil bo'lishidagi o'rni. Paleozoy va Alp burmalanish bosqichlari va ularning relyefda aks etishi. Rudali foydali qazilmalarning Baland Afrikada, neft, gaz, fosfarit konlarining past Afrikada joylashganligi. Materik relyef shakllari, botiqlar, cho'llar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.

Iqlimi. Iqlim hosil qiluvchi omillari. Atmosfera harakatlarining asosiy xususiyatlari. Yoz va qish oylari iqlimi, harorat, namlik va yog'inning taqsimlanishi. Iqlim mintaqalarining takrorlanishi (ekvatorial mintaqadan tashqari). Neogen va to'rtlamchi davrda oqim yo'nalishlarining o'zgarishi, oqimlarning hosil bo'lish omillari.

Materik gidrografiyasi. Daryolarning to'yinishi va turlari. Yirik daryolari. Ko'llari va ularning asosiy xususiyatlari. Sharshara va suv omborlari. Yer osti suvlari va ulardan foydalanish.

Materik iqlimiga xos tabiat mintaqalarining joylashishi. O'simlik va hayvonot dunyosining asosiy turlari, ularning hosil bo'lish omillari, tarqalish qonuniyatlari. Tuproqlar va ularning hosil bo'lish jarayoni. Cho'llanish muammosi va uni yechish yo'llari. Asosiy qo'riqxonalar. Geografik mintaqalari va zonalari. Ularning ekvatorning har ikki tomonida takrorlanishi, tavsifi.

Tabiiy geografik rayonlari: Shimoliy Afrika (Atlas, Sahroi Kabir, Sudan), Markaziy Afrika (Kongo botig'i, Gvineya sohili), Sharqiy Afrika (Efiopiya tog'ligi, Sharqiy Afrika yassi tog'lari), Janubiy Afrika (Janubiy Afrika yassi tog'ligi, Kaap tog'ligi, Madagaskar), ularning tabiiy geografik tavsifi. Materikni rayonlashtirishning asosiy sabablari, regionlar tarkibidagi o'lkalarning ajralishi va ularning tavsifi, region va o'lkalarga qiyosiy tavsif.

6-mavzu: Janubiy Amerika

Janubiy Amerika materigining geografik joylashishi, tabiatining asosiy qirralari, okean va dengizlar oqimlarining ta'siri, materik atrofidagi orollar va yarim orollar, bo'g'izlar va qo'ltiqlar. Materikning chekka nuqtalari. O'rganilish tarixi.

Tektonik tuzilishiga tavsif. Janubiy Amerika materigining Gondvanadan ajralib chiqqan davri va shu davrdagi relyef tuzilishi, materik platformalarining qosil bo'lishi, tektonik harakatlar natijasida hosil bo'lgan relyef shakllari, Janubiy Amerika platformasi. Kaledon, gersin, mezozoy va alp burmalanish bosqichlari.

Relyefining asosiy xususiyatlari va shakllari. Sharqiy qismidagi yassi tog'lar, tekislik hamda pasttekisliklar. And tog'lari morfologiyasi. Platforma va burmali oblastlarda hamda botiqlarda foydali qazilmalarning joylanish va tarqalish qonuniyatlari.

Iqlim xususiyatlari. Iqlim hosil qiluvchi omillari. Relyefning materik iqlimini hosil bo'lishidagi o'rni va ahamiyati. Yoz va qish oylari iqlimlarining o'ziga xos xususiyatlari. Harorat, yog'in va namlikning taqsimlanishi. Iqlim mintaqalari va ularning ta'rifi. Okean va dengizlarning materik iqlimiga ta'siri.

Ichki suvlarining hosil bo'lishi. Materik daryolari sharsharalari ta'rifi. Ko'llar va ularning turlari, baland tog' ko'llari, yer osti suvlari. Suv boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish muammolari.

Materik iqlimiga xos tabiat mintaqalarining joylashishi, o'simlik, hayvomot olami va tuproq qoplamining o'zgarishi, mavjud tabiat mintaqalariga umumiy tavsif. Boshqa materiklar tabiat mintaqalari bilan taqqoslash. Tuproq turlari, zoogeografik oblastlari. Geografik mintaqalari va zonalari. And tog'laridagi balandlik mintaqalari.

Materikni rayonlashtirishning asosiy sabablari, regionlar tarkibidagi o'lkalarning ajralishi va ularning tavsifi, region va o'lkalarga qiyosiy tavsif.

Tabiiy geografik o'lkalari: Sharq tabiiy geografik rayoni, And tog'lari yoki G'arb tabiiy geografik rayoni, ularning tabiiy geografik tavsifi.

7-mavzu. Avstraliya

Avstraliya materigining geografik joylashishi, okean va dengiz oqimlarining ta'siri, materik atrofidagi orollar va yarim orollar, bo'g'izlar va qo'ltiqlar. Materiklarning chekka nuqtalari. Janubiy yarim sharda joylashganligi, o'lchamlari, o'ziga xos xususiyatlari. Tarkib topish tarixi. Avstraliya materigining Gondvanadan ajralib chiqqan davri va shu davrdagi relyef tuzilishi, Materik platformalarining hosil bo'lishi, tektonik harakatlar natijasida hosil bo'lgan relyef shakllari.

Avstraliya platformasining tuzilishi va uning relyefda aks etganligi (G'arbiy Avstraliya yassi tog'ligi, Markaziy tekislik), poleozoy burmalanish mintaqasi (Sharqiy Avstraliya tog'lari). Hozirgi vaqtdagi relyef hosil qiluvchi omillari, rudali foydali qazilmalari. Materikdagi tog'lar, vulkanik cho'qqilar, qoldiq tog' va tekisliklar, botiqlar, cho'llar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.

Materik iqlimining o'ziga xos xususiyatlari, iqlimga ta'sir etuvchi omillar, iqlim mintaqalariga tavsif va ularning iqlim o'lkalariga ajralish sabablari, okean va dengizlarning materik iqlimiga ta'siri. Materikdagi atmosfera harakatlarining markazlari. Namlik va yog'inning notekis taqsimlanishi.

Materik daryolari sharsharalari, ko'llari va ularning kelib chiqishiga ko'ra turlari, daryolarning to'yinish manbalari. «Kriklar», sho'r ko'llar, yer osti suvlari (arteziyan havzalari).

Materik iqlimiga xos tabiat mintaqalarining joylashishi, o'simlik, hayvonot olami. Turlarga kambag'alligi. Sodda sut emizuvchilarning ko'pligi. Ko'p sut emizuvchi hayvonlarning xaltasimonligi. Geografik mintaqalari va zonalar. Tropik mintaqalari landshaftlarining tarqalganligi. Tuproq qoplamining o'zgarishi, mavjud tabiat mintaqalariga umumiy tavsif. Boshqa materiklar tabiat mintaqalari bilan taqqoslash.

8-mavzu. Antarktida

Janubiy qutb doirasida joylashgan yagona materik. Tabiatining asosiy qirralari, o'lchamlari. Shakllanish tarixi, Antarktida materigi o'rganilish tarixi. Paleozoy burmalanish mintaqasi. Muz usti va osti relyefi. Muzning qalinligi, muzning turlari, shelf muzliklari. «Vohalar».

Materik iqlimi. Iqlimining o'ziga xos xususiyatlari. O'simlik va hayvonot dunyosi. G'arbiy Antarktida, Sharqiy Antarktida, ularning tabiiy geografik tavsifi.

II modul. Okeanlar

9-mavzu. Kirish. Dunyo okeani asosiy tabiiy geografik obyekt sifatida

Okeanlar tabiiy geografiyasining predmeti, ob'ekti va tadqiqot usullari. Okeanlar tabiiy geografiyasining maqsadi va asosiy vazifalari. Okeanosferaning tarkibiy qismlari (okean tubi va uning dengizlari relyefi, qirg'oqlari, tub cho'kindilari, gidrosfera va biosfera); okeanlarning har birining tabiiy xususiyatlarini tavsiflash; geografik hodisalarning qonuniyatlarini ko'rib

chiqish. Dunyo okeani, uning kelib chiqish va rivojlanish tarixi; Dunyo okeani tabiiy resurslari va ularning tugash xavfi;

Dunyo okeani asosiy tabiiy geografik ob'ekt sifatida. Okean geosferaning bo'g'ini sifatida: asosiy xossalari, qismlarga bo'linishi va ularning o'ziga xosligi, boshqa geosferalar (atmosfera, gidrosfera, litosfera, biosfera) bilan o'zaro ta'siri. Tadqiqot tarixining qisqacha tavsifi.

10-mavzu. Dunyo okeani suvlari va okean tubi relyefi

Dunyo okeanining relyefi va tub cho'kindilari. Pastki qismning sayyoraviy morfostrukturalari: tarqalish shakllari, geomorfologik tuzilishi va zamonaviy geodinamika (suv osti materik chetlari, okean tubi, O'rta okean tog' tizmalari). Dunyo okeanining paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixiga zamonaviy qarash. Dengiz cho'kindilari (cho'kindi bilan ta'minlash manbalari, okeandagi cho'kindi jinslarning tarqalishi va farqlanishi, sedimentogenez qonuniyatlari va cho'kindi turlari). Kontinental aylana, dengiz cho'kindilarining iqlimiy va vertikal zonalligi.

Dunyo okeani suvlari. Ularning xususiyatlari issiqlik, sho'rlanish, zichlik, shaffoflik va dinamik - oqimlar, to'liqlar, toshqinlar, suv massalari. Dunyo okeanidagi suv ustunining vertikal tuzilishi. Dunyo okeani suvining harorati va uning global iqlim o'zgarishlar ta'siri. Dunyo okeani suv sathining pleystosen-golotsen davridagi o'zgarishlari, ularning qirg'oqbo'yi relyefi shakllanishi va rivojlanishidagi roli. Global isish tufayli dengiz sathining ko'tarilishi prognozi.

11-mavzu. Dunyo okeanining tabiiy resurslari va geoekologik muammolari

Dunyo okeanining tabiiy resurslari: biologik, kimyoviy, geologik, transport, rekreatsion, estetik, quruqlik, balneologik (tibbiy va biologik). Dunyo okeanidagi qayta tiklanadigan energiya manbalari.

Dunyo okeani rivojlanishining geoekologik muammolari. Antropogen ta'sir turlari: chiqindilarni tashlab yuborish, qazib olish mineral resurslar (joylashtiruvchilar, quyma aralashmalar, uglevodorodlar va boshqalar), qirg'oq zonasida qirg'oqni himoya qilish va gidrotexnika qurilishi; sun'iy orollar. Jahon okeanining ifloslanish turlari (qattiq va suyuq maishiy chiqindilar, ularning farqlanish shakllari va okeanda to'planishi). Ekologik xavfsizlikning zamonaviy muammolari, rivojlanishi va dunyo okeani tabiatini boshqarish.

12-mavzu. Tinch okeani

Tinch okeanining geografik o'rni. Tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari. Okean osti rel'yefining tuzilishi. Relyef shakllari. Suv osti tizmalari, botiqlar, cho'kmalar. Tinch okeanining materiklarga ta'siri. Tinch okeani iqlimi. Iqlim mintaqalarining shakllanishi. Tinch okeanidagi orollar va ularning shakllanishi, turlari. Tabiat zonalari. O'simliklar va hayvonot dunyosi geografiyasi. Tinch okeani tabiiy resurslarini muhofaza qilish.

13-mavzu. Atlantika okeani

Atlantika okeanining geografik o'rni. Tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari. Okeanlar suv osti relyefining tuzilishi. Relyef shakllari. Suv osti tizmalari, botiqlar, cho'kmalar. Atlantika okeanining materiklarga ta'siri. Atlantika okeani

iqlimi. Iqlim mintaqalarining shakllanishi. Atlantika okeanidagi orollar va ularning shakllanishi, turlari. Tabiat zonalari. O'simliklar va hayvonot dunyosi geografiyasi. Okean tabiiy resurslarini muhofaza qilish.

14-mavzu. Hind okeani

Hind okeanining geografik o'rni. Tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari. Okean osti relyefining tuzilishi. Relyef shakllari. Suv osti tizmalari, botiqlar, cho'kmalar. Hind okeanining materiklarga ta'siri. Hind okeani iqlimi. Iqlim mintaqalarining shakllanishi. Hind okeanidagi orollar va ularning shakllanishi, turlari. Tabiat zonalari. O'simliklar va hayvonot dunyosi geografiyasi. Hind okeani tabiiy resurslarini muhofaza qilish.

15-mavzu. Shimoliy Muz okeani

Shimoliy Muz okeanining geografik o'rni. Tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari. Okeanlar suv osti relyefining tuzilishi. Relyef shakllari. Suv osti tizmalari, botiqlar, cho'kmalar. Shimoliy muz okeanining materiklarga ta'siri. Shimoliy Muz okeani iqlimi. Iqlim mintaqalarining shakllanishi. Shimoliy Muz okeanidagi orollar va ularning shakllanishi, turlari. Tabiat zonalari. O'simliklar va hayvonot dunyosi geografiyasi. Shimoliy muz okeani tabiiy resurslarini muhofaza qilish.

II QISM. JAHON MAMLAKATLARI IQTISODIY VA IJTIMOIIY GEOGRAFIYASI

I-MODUL. JAHON MAMLAKATLARI IJTIMOIIY-IQTISODIY GEOGRAFIYASINING NAZARIY ASOSLARI.

1-mavzu. Kirish. Dunyoning «hududiy» bo'linishi: mamlakatlar va mintaqalar. Mamlakat va mamlakatshunoslik tushunchasi.

Tabiiy sharoitlar ijtimoiy-iqtisodiy makonni differentsiatsiyalash omili sifatida. Mamlakat va davlat tushunchalari. Mamlakatshunoslik va «davlatshunoslik». Davlatning asosiy xususiyatlari. Hudud tushunchasi. Hududiy differentsiatsiyaning asosiy tamoyillari. «Markaz-periferiya» modeli.

Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya tushunchasi. Mamlakatshunoslik umumgeografik fan sifatida. «Mamlakatshunoslik», «hududshunoslik», «hududiy geografiya» va boshqa tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar. N.N. Baranskiyning kompleks mamlakatshunoslik bo'yicha klassik maktabi. V.M. Goxman va Ya.G. Mashbitsning muammoli mamlakatshunoslik konsepsiyasi.

To'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ko'rsatkichlar. Ijtimoiy ko'rsatkichlar: jamiyat hayoti sifati (inson taraqqiyoti indeksi); demografik ko'rsatkichlar (tug'ilish, o'lim, tabiiy o'sish, jinsi va yoshi bo'yicha tarkib, umr ko'rish davomiyligi). Urbanizatsiya. Global (jahon) shaharlar. Migratsiyalar. Iqtisodiy ko'rsatkichlar: yalpi ichki mahsulot (YaIM) umumiy va jon boshiga hisoblangan hajmi, YaIMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi, YaIM o'sish sur'atlari, ishsizlik darajasi, tashqi savdoning hajmlari va tarkibi va boshqalar. Iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasi (birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi sektorlar). Iqtisodiy rivojlanish darajasini baholash. Yangi va eng yangi tarmoqlar. Kreativ

(ijodiy) sanoatlar. Axborotning asosiy manbalari (global, mintaqaviy, milliy). Mamlakatshunoslik bo'yicha SWOT-tahlil, xaritalar.

2-mavzu. Jahon mamlakatlarining tipologiyasi.

Tipologiya tushunchasi. Mamlakat tipologik xususiyatlarning tashuvchisi sifatida. «Mamlakat turi» tushunchasi. Sivilizatsiya va sivilizatsion turlar. Madaniy-sivilizatsion rayonlashtirish. Xorijiy tipologlar hissi (Sh. Monteskye, K. Marks, E. Xantington, A. Sovi). Jahon mamlakatlari tipologiyasi bo'yicha mahalliy (milliy) ilmiy maktablar. Tipologiyada ko'p o'lchovli statistik tahlil. Mezonlar tanlash. Mamlakatlarning asosiy turlariga umumiy tavsif.

II-MODUL. JAHONNING MAKROMINTAQALARI VA YIRIK MAMLAKATLARNING ASOSIY XUSUSIYATLARI.

3-mavzu. Xorijiy Yevropaning ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. Germaniya.

Yevropa jahon xaritasida. Makromintaqaning xalqaro maydondagi mavqeyi. Turli genezis omillari asosida Yevropa submintaqalarining ajratilishi. Yevropa mamlakatlarining madaniy-tarixiy merosi va «yevropa identikligi»ning shakllanishi. Hududiy rivojlanishning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy xususiyatlariga umumiy tavsif. Yevropa Ittifoqi (YeI). YeIga a'zo mamlakatlar. Yevropa integratsiyasi muammolari.

Zamonaviy Germaniya Yevropa va dunyo xaritasida. Mamlakat tarixiy rivojlanishining bosqichlari. Siyosiy tizimi. Mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilishi. Resurslar bilan ta'minlanganlik. Aholining etnokonfessional va diniy tarkibi. Demografik xususiyatlar va mehnat bozori rivojlanishining o'ziga xos jihatlari. Urbanistik karkas va yirik aglomeratsiyalar. Iqtisodiyotning tarmoq va hududiy tarkibi. O'rta va yuqori texnologiyali iqtisodiyot tarmoqlarining joylashuv xususiyatlari: umumiy mashinasozlik, kimyo sanoati, avtomobilsozlik, elektrotexnika, elektronika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT). Tashqi iqtisodiy aloqalar. Germaniyaning iqtisodiy rayonlashtirilishi.

4-mavzu. Fransiya, Buyuk Britaniya

Fransiya Yevropa va dunyo xaritasida. Fransiya hududi va suv havzalari tarkibining o'ziga xos jihatlari. Mamlakatning ma'muriy-hududiy bo'linishi. Biskay, O'rta Yer dengizi va Shimoliy dengiz Fransiyasi. Aholi geografiyasi. Yirik shaharlar. Fransiya iqtisodiyoti: asosiy tarmoqlar, kompaniyalar, korxonalar va ularning joylashish xususiyatlari.

Buyuk Britaniya Yevropa va dunyo xaritasida. Mamlakatning mintaqaviy bo'linishi. Resurslar bilan ta'minlanganlik va Shimoliy dengizning neft-gaz zaxiralarini o'zlashtirish xususiyatlari. Aholi geografiyasi. Demografik xususiyatlar va aholining reproduktiv xulq-atvori. Urbanistik karkas. Iqtisodiyotning tarmoq va hududiy tuzilishi. Kon sanoati. Yuqori texnologik sohalar. Xizmat ko'rsatish sohasi: moliya va bank sektori, turizm. Energetika rivojlanishi; quyosh va shamol energetikasining o'rni. Buyuk Britaniyaning iqtisodiy rayonlashtirilishi. Ayrim iqtisodiy-geografik rayonlarning tavsifi

(London, Uels, Shotlandiya, Shimoliy Irlandiya). Mamlakatning xalqaro iqtisodiy aloqalar tizimidagi o'ri.

5-mavzu. Janubiy Yevropa mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. Ispaniya, Italiya

Ispaniya Yevropa va dunyo xaritasida. Madaniy-tarixiy rivojlanishi. Iqtisodiy-geografik o'ri. Mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilishi. Millatchilik va separatizm muammolari: Kataloniya, Basklar o'lkasi. Aholi geografiyasi. Zamonaviy demografik vaziyat. Ispaniyaning umumiy iqtisodiy-geografik tavsifi. Mamlakat iqtisodiy tuzilmasining o'ziga xos xususiyatlari. Yevropa Ittifoqiga qo'shilganidan keyingi qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvidagi o'zgarishlar. Turizm mamlakat iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri sifatida. Ispaniyaning iqtisodiy rayonlashtirilishi. Madrid, Kataloniya va Estremaduraning qiyosiy tahlili.

Italiya. Zamonaviy Italiya Yevropa va dunyo xaritasida. Siyosiy tizim. Mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilishi. Resurslar bilan ta'minlanganlik. Aholining etnokonfessional tarkibi, demografik xulq-atvor va mehnat bozori. Urbanistik karkas va yirik shahar aglomeratsiyalari. Iqtisodiyotning tarmoq va hududiy tuzilishi. Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari. Tarmoq klasterlari. Italiyaning iqtisodiy rayonlashtirilishi. Mamlakat janubi va shimolidagi rivojlanish xususiyatlarining qiyosiy tahlili. «Uchinchi» Italiya.

6-mavzu. Skandinaviya mintaqasidagi mamlakatlar (Shvetsiya, Norvegiya, Daniya, Finlyandiya, Islandiya) ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi.

Shimoliy mamlakatlar birlashmasi. Skandinaviya mintaqasi mamlakatlari Yevropa va dunyo xaritasida. Tabiiy-geografik sharoitlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'siri. Resurslar bilan ta'minlanganlik. Aholi geografiyasi: demografik xulq-atvor va etnokonfessional tarkib xususiyatlari. Aholining joylashuv tuzilishi, mehnat bozori. XXI asr boshidagi tashqi migratsiyalar muammosi. Skandinaviya ijtimoiy rivojlanish modeli. Ijtimoiy kapital tushunchasi. Eresunn-regioni. Mintaqa mamlakatlari xo'jaligining tarmoq va hududiy tuzilishi. Yuqori texnologiyali va kreativ (ijodiy) iqtisodiyot tarmoqlari. Mashhur kompaniyalar va brendlar. Skandinaviya mintaqasi mamlakatlarining xalqaro mehnat taqsimoti tizimidagi o'ri. Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy «dualizm»i.

7-mavzu. Xorijiy Yevropaning kichik iqtisodiy rivojlangan mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. Beniluks mamlakatlari. Shveysariya

Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg ittifoqi. Benilyuks Yevropa va dunyo xaritasida. Tabiiy-geografik va iqtisodiy-geografik o'ri. Tarixiy hududlar. Zamonaviy ma'muriy-hududiy bo'linishi. Aholi geografiyasi. Aholining demografik xususiyatlari. Migratsiyalar. Xo'jalik tarkibining o'ziga xos jihatlari. Iqtisodiyotning birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi sektorlarining tuzilishi. Mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimotidagi ixtisoslashuvi.

Shveysariya. Mamlakatning iqtisodiy-geografik o'ri. Siyosiy tizimi. Ma'muriy-hududiy tuzilishi. Xo'jalik tarkibi va xalqaro mehnat taqsimotidagi

ixtisoslashuvining o'ziga xos jihatlari. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari. Aholining etnokonfessional tarkibi, demografik xulq-atvori va mehnat bozori. Iqtisodiyotning tarmoq va hududiy tuzilishi. Iqtisodiy rayonlashtirilishi.

8-mavzu. Markaziy va sharqiy Yevropa mamlakatlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining umumiy tahlili. Polsha

Hududning tarkibi va tuzilishi. Hudud mamlakatlarining 1990-yillardagi siyosiy va iqtisodiy transformatsiyasi hamda 2004-yildan keyin Markaziy va Sharqiy Yevropa (MShYe) mamlakatlarining umumiyevropa iqtisodiy tuzilmalariga integratsiyasi muammosi.

Polsha. Tarixiy-madaniy landshaft. Mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilishi. Resurslar bilan ta'minlanganlik. Aholining etnokonfessional va diniy tarkibi. Demografik xulq-atvor va mehnat bozorining rivojlanish xususiyatlari. Urbanistik karkas va yirik shahar aglomeratsiyalari. Poytaxt mintaqasi. «Uch shahar» (Gdiniya, Gdansk, Sopot). Xo'jalikning tarmoq va hududiy tuzilishi. Yuqori texnologiyali iqtisodiyot tarmoqlarining joylashuv xususiyatlari. Tarmoq klasterlari. Xizmat ko'rsatish sohasi. Turizm. Iqtisodiy rayonlashtirish. Dunay daryosi resurslaridan kompleks foydalanish.

MShYe mamlakatlaridagi milliy va etnik muammolar tavsifi: Vengriya, Ruminiya va Bolgariya misolida. Yugoslaviya federatsiyasi parchalangandan keyingi «Serbiya masalasi» va «Albaniya masalasi».

9-mavzu. «Ko'chirilgan kapitalizm» mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. AQSH, Kanada

AQSh dunyo xaritasida. Hududning o'zlashtirilish tarixi. Birinchi aholi punktlari. Davlatchilik shakllanishining asosiy bosqichlari. Lyuis va Klarkning qit'a orqali sayohati. Eri kanalining qurilishi. Kaliforniyadagi «oltin talvasasi». 1861–1865-yillardagi fuqarolar urushi. «Buyuk depressiya». AQSh tarixida shaxslarning o'rni: Jorj Vashington, Tomas Jefferson, Avraam Linkoln, Franklin Ruzvelt.

Siyosiy geografiyaning asoslari. Ma'muriy-hududiy bo'linish. AQSh Konstitutsiyasi. Hokimiyatlarning bo'linishi: qonunchilik, ijro etuvchi va sud hokimiyatlarining mustaqilligi. «Cheklash va muvozanatlash» tizimi. Siyosiy tizimning xususiyatlari. Jerrimendering (saylov okruglari chegaralarining sun'iy o'zgartirilishi).

Aholi AQShning asosiy resursi sifatida. Aholi sonining dinamikasi. Demografik vaziyatning xususiyatlari. Aholining etnokonfessional tarkibi. «Erituvchi qozon» («melting pot») modeli. AQSh urbanizatsiyasi. Mamlakatning «asosiy urbanistik karkasi»: Nyu-York, Los-Anjeles, Chikago, Dallas, Xyuston, San-Diyego, Atlanta, Boston, Filadelfiya, San-Fransisko, Vashington shaharlari. Urbanizatsiyalashgan va metropolitan hududlar. Megalopolislar.

Sanoatning hududiy tuzilishi turlari: almashinayotgan Shimoli-Sharq, barqarorlashayotgan O'rta G'arb, quvlab yetayotgan Janub, rivojlanish bo'yicha oldinga chiqayotgan G'arb. Yirik sanoat markazlari (Los-Anjeles, Nyu-York,

Chikago, Detroyt, Filadelfiya). Elektronika, aviatsiya, avtomobilsozlik va kemasozlik sanoatining asosiy rayonlari. Kimyo sanoati.

Transport geografiyasi. Asosiy port komplekslari. Yirik aeroportlar («xablar»). Mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi oʻrni. Tashqi savdo. Investitsion faoliyat. NAFTA (Shimoliy Amerika Erkin Savdo Bitimi).

Kanada. Tabiiy-geografik va iqtisodiy-geografik oʻrni. Madaniy-tarixiy rivojlanishi. Siyosiy tizim. Maʼmuriy-hududiy tuzilish. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish koʻrsatkichlari. Aholining etnokonfessional tarkibi, demografik xulq-atvor va mehnat bozori. Xoʻjalikning tarmoq va hududiy tuzilishi. Xalqaro mehnat taqsimotidagi oʻrni. Rivojlanish muammolari va ularni hal qilish yoʻllari.

10-mavzu. Avstraliya, Yangi Zelandiya

Avstraliya va Yangi Zelandiya dunyo xaritasida. Avstraliyaning tarixiy-madaniy jihatdan oʻzlashtirilish xususiyatlari. Avstraliya aholisi geografiyasi va immigratsiya siyosatining asosiy tendensiyalari va muammolari. Mamlakatning madaniy landshafti. Iqtisodiy rivojlanishning oʻziga xos jihatlari. Xoʻjalikning tarmoq va hududiy tuzilishi. Xalqaro mehnat taqsimoti tizimidagi oʻrni.

11-mavzu. Osiyo mintaqasining yetakchi iqtisodiyotlariga ega mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. Xitoy, Yaponiya, Hindiston

Tarixiy-madaniy rivojlanish xususiyatlariga umumiy tavsif. Xitoy dunyo xaritasida. Tabiiy-geografik va iqtisodiy-geografik oʻrni. Tarixiy-madaniy jihatlar. Zamonaviy rivojlanishning shartlari va omillari. Ichki mintaqaviy tafovutlar. Aholi geografiyasi. Urbanizatsiya. Mamlakatning yirik aglomeratsiyalari. Demografik siyosat. Madaniy inqilob. Xitoy iqtisodiy rivojlanishining bosqichlari va har bir bosqichdagi hududiy rivojlanish xususiyatlari. Shimoliy va Janubiy Xitoy. Xoʻjalikning zamonaviy hududiy tuzilmasining shakllanishi. Islohotlar va ochiqlik siyosati. Yetakchi sanoat va qishloq xoʻjaligi markazlari. Jahon iqtisodiyotida Xitoyning oʻrni va roli.

Yaponiya. Xalqaro maydondagi oʻrni (ijtimoiy-iqtisodiy jihat). Yaponiya aholisi geografiyasi: etnik tarkib va aholining joylashuv xususiyatlari. Demografik muammolar (aholining qarishi). Eng yirik aglomeratsiyalar: Tokio, Osaka, Kobe, Nagoya, Kioto. Yaponiyaning tipologik xususiyatlari va yapon xalqiga xos xususiyatlar. «Yapon moʻjizasi». Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari: muvaffaqiyat va yangi davrning «chaqiriqlari». Yuqori texnologiyalar. Energetika masalasi. Tashqi iqtisodiy aloqalar.

Hindiston. Hindiston dunyo xaritasida. Demografiya va etnokonfessional geografiyaning asosiy xususiyatlari. Qashshoqlik va kuchayib borayotgan ijtimoiy tengsizlikka qarshi kurash muammolari, OITS epidemiyasiga qarshi kurash. Qishloq xoʻjaligini modernizatsiya qilish va oziq-ovqat xavfsizligi muammosi. Xalqaro ixtisoslashuv tarmoqlari, tashqi iqtisodiy aloqalarning tarkibi va geografiyasi. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi yutuqlar hamda mavjud muammolar.

12-mavzu. Janubiy va janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. Janubiy va Shimoliy Koreya, Indoneziya va Filippin, Malayziya, Tailand va Singapur, Bangladesh, Pokiston

Janubi-Sharqiy Osiyo rivojlanishi xususiyatlariga umumiy tavsif. Hududning sivilizatsion umumiyliги shakllanishi. Hududning tarkibi va uning zamonaviy dunyodagi o'rnini. Hududning tabiiy-geografik jihatdan parchalanishi. Davlat hududlarining morfologiyasi: tarkibi, konfiguratsiyasi, chegaralari. Mintaqa mamlakatlarining kattaligi va turlariga ko'ra xilma-xilligi. Mintaqaning kontakt zonasi sifatida hind va xitoy sivilizatsiyalari ta'sirlarining o'zaro tutashuvi. Mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish modellari bo'yicha xilma-xilligi. «Yangi industrial mamlakatlar». Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi integratsion jarayonlar. Siyosiy geografiya. Hududiy nizolar.

«Ikki Koreya»: KXDR va Koreya Respublikasi. Tabiiy va insoniy salohiyat. Koreys davlatlarining tarixiy rivojlanishi xususiyatlari va muammolari. Jadal industrializatsiyaning ichki va tashqi siyosiy shartlari. Koreya Respublikasi «bilimlar iqtisodiyoti» sifatida. Hududiy tuzilmalar rivojlanishi.

Indoneziya va Filippin. «Boy mamlakatlarning qashshoqligi», hududiy jihatdan parchalanib ketgan, ko'p millatli va ko'p konfessiyali mamlakatlarda jamiyat va iqtisodiyot integratsiyasi muammolari. Hududiy siyosat.

Malayziya. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, bunda an'anaviy madaniyat va ijtimoiy-siyosiy tuzilmalarning saqlanib qolishi.

Tailand. Singapur. Tabiiy-geografik va iqtisodiy-geografik o'rnini. Xorijiy siyosiy sharoitlarning o'ziga xosligi. Rivojlanish turlari, modellari va hududiy iqtisodiyot tuzilishining o'ziga xos jihatlari. Tashqi bozorlarga yo'naltirilgan iqtisodiy rivojlanish. Global integratsiya va milliy identiklik muammosi.

Bangladesh va Pokiston. Hindiston bilan qo'shnichilik. Iqtisodiy va siyosiy-geografik o'rnini xususiyatlari. Aholi geografiyasining asosiy tendensiyalari va muammolari. Mamlakatlarning madaniy landshafti. Iqtisodiy rivojlanishning o'ziga xos jihatlari. Xo'jalikning tarmoq va hududiy tuzilishi. Xalqaro mehnat taqsimoti tizimidagi o'rnini.

13-mavzu. Yaqin Sharq mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. Suriya, Eron

Mintaqaning geografik o'rnini: xususiyatlari va namoyon bo'lish shakllari. Mintaqa tarkibi. «Mashriq», «Mag'rib», «Arab dunyosi» (Janubi-g'arbiy Osiyo mamlakatlari va ular bilan uzviy bog'langan Shimoliy Afrika mamlakatlari), «Fayzli yarim oy» kabi tushunchalar. Tranzit salohiyati: amalga oshirilishi va siyosiy-geografik cheklovlar. Suvaysh kanali. Quvur tarmoqlari shakllanishining zamonaviy tendensiyalari. Mintaqaning jahon kapital aylanishidagi o'rnini. Uch monoteistik dinning paydo bo'lish va tarqalish markazi. Islom geografiyasi, islom omilining mintaqa mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rnini. «Islomizm». Siyosiy xaritaning shakllanishi va mintaqaning konfliktlilik darajasi. Asosiy «qaynoq nuqtalar», uzoq davom etayotgan «sekin yonayotgan» mojarolar. Beqarorlik omillari: hududiy,

resurslarga oid va etnokonfessional jihatlar. Panarabizm g'oyasi va millatchilik. Mintaqaning iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari va dunyodagi o'rni.

Suriya, Eron. Tabiiy-geografik va iqtisodiy-geografik o'rni. Madaniy-tarixiy rivojlanish. Siyosiy tizim. Ma'muriy-hududiy tuzilishi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari. Aholining etnokonfessional tarkibi, demografik xulq-atvori va mehnat bozori. Xo'jalikning tarmoq va hududiy tuzilishi. Xalqaro mehnat taqsimoti tizimidagi o'rni. Rivojlanish muammolari va ularni hal qilish yo'llari.

14-mavzu. Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlari rivojlanishining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tavsifi. Braziliya, Meksika, Argentina va boshqa yetakchi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi.

Mintaqaning zamonaviy siyosiy xaritasi, uning shakllanish xususiyatlari. Etnokonfessional va lingvistik jihatdan xilma-xillik. Jahon iqtisodiy tizimidagi mintaqaning mavqeyi. Xo'jalikning yetakchi tarmoqlari (birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi sektorlar). Hududiy nizolar. Iqtisodiy (jumladan, energetik) integratsiya jarayonlari.

Braziliya, Meksika, Argentina va boshqa yetakchi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. Mintaqa va dunyo xartasida mamlakatlarning o'rni. Tabiiy-geografik va iqtisodiy-geografik o'rni. Madaniy-tarixiy rivojlanish. Siyosiy tizim. Ma'muriy-hududiy tuzilishi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari. Aholining etnokonfessional tarkibi, demografik xulq-atvori va mehnat bozori. Xo'jalikning tarmoq va hududiy tuzilishi. Xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rni. Zamonaviy bosqichdagi rivojlanish yutuqlari va muammolari.

15-mavzu. Afrika mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. Hududiy rivojlanish muammolari.

Afrikaning xorijiy dunyoning boshqa mintaqalaridan asosiy geografik farqlari. Yuqori Afrika va Past Afrika. Mintaqaning zamonaviy siyosiy xaritasi va uning shakllanish xususiyatlari. Afrika qit'asining mintaqaviy bo'linishi (Shimoliy, Janubiy, G'arbiy va Sharqiy Afrika). Aholi geografiyasi. Aholining etnokonfessional tarkibi. Aholining joylashuvi xususiyatlari. Ijtimoiy muammolarni hal qilish yo'llari. Panafrikanizm. Rivojlanishning iqtisodiy jihatlari. Resurslar bilan bog'liq bo'lgan «resurslar la'nati» hodisasi. Mintaqa mamlakatlari iqtisodiyotining xilma-xilligi («iqtisodiy mozaika»). Rivojlanish istiqbollari (prognozlari).

III. AMALIY MASHG'ULOTLARI BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

I qism. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi:

1. Yer yuzining landshaft tuzilishi. Zonal va azonal farqlanish omillari. Geografik zonalar, sektorlar.
2. Xorijiy Yevropa.

3. Xorijiy Osiyo.
4. Shimoliy Amerika.
5. Afrika materigi.
6. Janubiy Amerika.
7. Avstraliya.
8. Antarktida.
9. Kirish. Dunyo okeani asosiy tabiiy geografik ob'ekt sifatida.
10. Dunyo okeani suvilari va okean tubi relyefi.
11. Dunyo okeanining tabiiy resurslari va geoekologik muammolari.
12. Tinch okeani.
13. Atlantika okeani.
14. Hind okeani.
15. Shimoliy Muz okeani

II qism. Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi

1. Kirish. Dunyoning «hududiy» bo'linishi: mamlakatlar va mintaqalar. Mamlakat va mamlakatshunoslik tushunchasi.
2. Jahon mamlakatlarining tipologiyasi.
3. Xorijiy Yevropaning ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. Germaniya.
4. Fransiya, Buyuk Britaniya
5. Janubiy Yevropa mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. Ispaniya, Italiya
6. Skandinaviya mintaqasidagi mamlakatlar (Shvetsiya, Norvegiya, Daniya, Finlyandiya, Islandiya) ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi.
7. Xorijiy Yevropaning kichik iqtisodiy rivojlangan mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. Beniluks mamlakatlari. Shveysariya
8. Markaziy va sharqiy Yevropa mamlakatlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining umumiy tahlili. Polsha
9. «Ko'chirilgan kapitalizm» mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. AQSH, Kanada
10. Avstraliya, Yangi Zelandiya
11. Osiyo mintaqasining yetakchi iqtisodiyotlariga ega mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. Xitoy, Yaponiya, Hindiston
12. Janubiy va janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. Janubiy va Shimoliy Koreya, Indoneziya va Filippin, Malayziya, Tailand va Singapur, Bangladesh, Pokiston
13. Yaqin Sharq mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. Suriya, Eron
14. Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlari rivojlanishining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tavsifi. Braziliya, Meksika, Argentina va boshqa yetakchi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi.
15. Afrika mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. Hududiy rivojlanish muammolari.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- esse – dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;

- dokladlar tayyorlash;

- kurs ishi yozish;

- konspekt yozish;

- glossariy tuzish;

- individual va guruhiy o'quv loyihasi;

- keys-topshiriqlarini bajarish;

- mavzuli portfoliolar tuzish;

- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;

- manbaalar bilan ishlash;

- infografika tuzish;

- chizma-tasviriy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish;

- multimediali taqdimotlar yaratish;

- darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;

- darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmalarini tayyorlash;

ta'lim yo'nalishi(mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

I qism. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi

1. Materiklarning geografik o'rni okean qismlari, chekka nuqtalarining o'ziga xosligi, foydali qazilmalari
2. Materiklar tektonikasi, tekshirilish tarixi
3. Materiklar relyefi, orografiyasi
4. Materiklar iqlimi, iqlim hosil qiluvchi omillari
5. Materiklar gidroografiyasi
6. Materiklarning tabiat mintaqalari (tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi)
7. Materiklarni tabiiy geografik rayonlashtirish masalalari, ulkalariga kiyosiy tavsif
8. Dunyo okeani (Tinch, Atlantika, Hind, Shimoliy Muz) tabiatiga tavsif.
9. Mo'tadil iqlim mintaqasi tabiat zonalari
10. Subtropik iqlim mintaqaning tabiat zonasi
11. Afrika va Amerika qit'asining o'xashliklari, farqlari

	12. Ekvatorial o'rmonlar zonasi tarqalgan materiklar tavsifi 13. Materiklarda shakllangan balandlik mintaqalari 14. Dunyo okeani suvlarining ifloslanish manbalari 15. Afrika materigida tarqalgan cho'llar tavsifi 16. And tog'lari orografik xususiyatlari 17. Baland Osiyo tog'laridagi balandlik mintaqalari 18. Materiklardagi alohida muhofaza qilinadigan hududlar 19. Iqlim mintaqalariga xos ravishda tabiat zonalarining tarqalishi 20. Materiklar tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilish 21. Dunyo okeani suv osti relyefi xususiyatlari 22. Dunyo okeani organik dunyosi, ularni muhofaza qilish masalalari 23. Materiklar tabiat zonalarining bir-biridan farqi 24. G'arbiy va Sharqiy yarim sharlarda joylashgan materiklarga qiyosiy tavsif 25. Materiklarning o'rganilish tarixi 26. Materiklar iqlimiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar 27. Materiklar tabiiy-geografik rayonlariga qiyosiy tavsif 28. Dunyo okeanining o'rganilish tarixi. II qism. Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi 1. Dunyo mamlakatlari tipologiyasi. 2. Janubiy Osiyo aholisining etnik va konfessional tarkibi. 3. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi. 4. Indoneziyaning iqtisodiy-geografik o'rni, tabiiy resurslari, aholisi va xo'jaligi. 5. Ispaniyaga iqtisodiy-geografik tavsif. 6. Meksikaning iqtisodiy-geografik o'rni, tabiiy resurslari, aholisi va xo'jaligi. 7. Nigeriyaning iqtisodiy-geografik o'rni, tabiiy resurslari, aholisi va xo'jaligi.
3.	V. FAN NATIJALARI (SHAKLLANADIGAN KOMPETENSIYALAR) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • Yer sayyorasi va uning Quyosh sistemasida tutgan o'rni; geografik qobiqning tuzilishi, tarkibi, chegaralari va rivojlanish xususiyatlari; Yerning geosferalari; Yerdagi Quyosh radiatsiyasining taqsimlanishi: radiatsiya va issiqlik balansi; Yer yuzasining iqlimi va iqlim mintaqalari, tabiat zonalarining hosil bo'lishi; materik va okeanlarning tabiiy geografik xususiyatlari; jahon mintaqalari va alohida mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimotida tutgan o'rni, aholi soni, aholisining tabiiy va mexanik harakati, urbanizatsiyasining tavsifi, xo'jaligining tarmoqlar tarkibi haqida bilim va tasavvurga ega bo'lishi; • tegishli tabiiy geografik obyekt (materik, yarimorol, orol, tog', tekislik, daryo, ko'l, tabiiy geografik rayon, okean, dengiz, bo'g'iz)larning geografik o'rnini ko'rsatib berish; havo massalarining xususiyatlarini, Yer yuzida yog'inlarning notekis taqsimlanishi sabablarini tahlil qilish; ayrim foydali qazilmalar konlarining joylashishini ko'rsata olish; Yerning iqlim mintaqalari va tabiat zonalarini bir-biridan farqlay olish; ayrim hududlar iqlimidagi tafovutlarni

	tahlil qilib berish; turli ma'lumotlar asosida tabiiy geografik obyektlarni, jarayon va hodisalarni tahlil qilish, baholash; jahon mamlakatlarini tasniflash va guruhlash; jahon mamlakatlari va mintaqalarini tabiiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy kartalarini loyihalash va tuzish ko'nikmalariga ega bo'lishi; • Dunyo okeani, materiklar va ularning qismlarini, iqlim mintaqalari va tabiat zonalari, atmosfera havosining doimiy va mavsumiy harakatlari, past va yuqori bosim markazlarini; okean va quruqlikdagi geografik mintaqalar, ularning o'zaro o'xshashligi va tafovutlarini, kelib chiqish sabablarini aniqlash; tarixiy va geografik taqqoslash tadqiqot metodlaridan foydalangan holda mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini qiyosiy tahlil qilish, ular rivojlanishining iqtisodiy-ijtimoiy geografik muammolarini hal etish yo'llarini topish malakalariga ega bo'lishi lozim.
	VI. MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR: "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" faniga doir savollar: 1. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi tabiiy fanlar tizimida qanday o'rinni egallaydi? Bu fan yer yuzasining qaysi elementlari va jarayonlarini o'rganadi? 2. Tabiiy geografiya, ekologiya, geomorfologiya va geologiya fanlarining o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qiling. Ular o'rtasidagi integratsiya qanday regional yoki global ilmiy yondashuvlar asosida amalga oshiriladi? 3. Materiklar va okeanlar relyefi, iqlimi, gidrogeografiyasi, biosferasi va boshqa tabiiy komponentlarini o'rganishda qanday ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llaniladi (masalan, kartografik tahlil, masofaviy zondlash, GIS, dala kuzatuvlari)? 4. Fizik-geografik hududiy tahlilning asosiy prinsiplari nimalardan iborat? Ular orqali qanday ilmiy xulosalarga kelish mumkin? 5. Tabiiy geografiya fanining ichki tuzilishini izohlang. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi bu tuzilmada qanday o'rin tutadi va u bilan bog'liq qaysi yo'nalishlar mavjud? 6. Materiklar va okeanlarda kechuvchi tabiiy jarayonlar (masalan, tektonik harakatlar, okean oqimlari, iqlim zonalligi) o'zaro qanday bog'langan va ularning global ekologik tizimlarga ta'siri qanday baholanadi? "Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" faniga doir savollar: 1. Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fanining geografik fanlar tizimidagi o'rni nimalardan iborat? Ushbu fan qanday iqtisodiy va demografik jarayonlarni o'rganadi? 2. Iqtisodiy geografiya, ijtimoiy geografiya va siyosiy geografiya fanlarining o'xshash va farqli jihatlarini tushuntiring. Ular o'rtasidagi integratsiya qanday zamonaviy tahlil metodlari asosida amalga oshiriladi? 3. Mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini o'rganishda qanday metodlar va vositalar qo'llaniladi (masalan, statistik tahlil, makroiqtisodiy indikatorlar, xalqaro indekslar, kartografik vizualizatsiya)?

	4. Ijtimoiy-iqtisodiy tahlilning asosiy tamoyillarini keltiring. Ular yordamida hududlarning rivojlanish darajasi va resurs salohiyatini qanday baholash mumkin? 5. Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasining ichki tuzilmasi qanday bo‘linadi? Bu tizimda transport geografiyasi, sanoat geografiyasi, demografik geografiya kabi yo‘nalishlarning o‘rni qanday? 6. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va geografik omillar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni tahlil qiling. Ularning global migratsiya, urbanizatsiya va iqtisodiy tengsizlik kabi muammolarga ta’siri qanday?
4.	VII. TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI: • ma’ruzalar; • interfaol metodlar; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VIII. KREDITLARNI OLISH UCHUN TALABLAR: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ish/testni topshirish.
6.	ASOSIY ADABIYOTLAR 1. Abdinazarova X.O. Tabiiy geografiya. O‘quv qo‘llanma. Qo‘qon, “ART-PRESS”, 2024. 2. Qo‘ziboyeva O.M., Abdunazarov L.M., Nazarov H.Yo., Yusupov X.B., Rasulov E.E. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi. O‘quv qo‘llanma. “Ilm T.: Ziyozakovat”, 2021. 3. Vaxobov X., Abdulqosimov A., Alimqulov N.R. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: “Nodirabegim”, 2021. 4. M.J.Maxmudova - Jahon geografiya // Oliy o‘quv yurti talabalari uchun darslik.– Namangan, 2022. – 344 b. 5. M.T.Mirakmalov, M.M.Avezov, E.Y.Nazaraliyeva “Tabiiy geografiyadan amaliy mashg‘ulotlar”, Toshkent, 2015-y. 6. Q.Bahromov, G.Halimova «Geografiyadan mashq va masalalarni yechish usullari», “Navro‘z” nashriyoti, Toshkent – 2017 7. Jahon mamlakatlari. Ma’lumotnoma / tuzuvchilar: Shuhrat Ergashev, To‘lqin Bobomatov, Nodir Tursunov; mas’ul muharrir R.Farmonov. - Qayta ishlangan va to‘ldirilgan nashri. -T.: "O‘zbekiston" NMIU, 2017. -320 b. 8. Namozov J.A., Nizamiyev A.G., Do’smonov F.A. Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: "Yangi chirchiq book", 2023. – 364 b.

	9. Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi [Matn] : o'quv qo'llanma / Safarova N.I., Komilova N.Q., Islomov I.N., Karakulov N.M. –Toshkent: Mahalla va Oila, 2022.–244 b. QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR 10. Baratov P., Sultanova N.B. Umumiy Yer bilimi. O'quv qo'llanma. T.: "Info Capital Group", 2019. 11. Maxmudova M.J., Qo'ldasheva M.N. Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi (O'quv qo'llanma). –N.: "Навръз", 2020. 12. Ibragimova R.A. va bosh. Jahon geografiyasi (materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi). T. Ma'rifat. 2023 13. Maxmudova M.J. Jahon geografiyasi. Namangan. 2022. 14. Soliyev I.R. Jahon geografiyasi. O'ZKITOBSAVDONASHRIYOTI. T. 2023. Axborot manbalari https://population.un.org/wpp/dataquery/. www.unep.org (BMTning atrof-muxit bo'yicha dasturi). www.undp.org (BMT Taraqqiyot Dasturi Veb-sayti). www.uzgeo.uz https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_G/b_G_fgm_y_ok_2021.pdf https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_G/b_G,K,E_vse_Soc.-econ._geogr._zarubegnyh_stran_2023.pdf
7.	Fan dasturi Qo'qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet kengashining 2025-yil 30-iyundagi 1-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: X. Abdinazarova – QDU "Geografiya" kafedrası v.b. dotsenti g.f.f.d. (PhD) A. Jabborov – QDU "Geografiya" kafedrası dotsenti b.f.n. O.Tobirov - QDU "Geografiya" kafedrası mudiri, g.f.f.d. (PhD)
9.	TAQRIZCHILAR: D. Mo'minov – QDU Geografiya kafedrası dotsenti, g.f.n.